

**ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ALI IBN HASAN IBN BASHIR**  
**AL-HAKIM AT-TERMIZIYNING ILMIY MEROSI**

**Fathiddin Muhammadjonov**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
O‘zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti  
kafedrası lingvistika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.n, dots., **I.Usmonov**

***Annotatsiya:** Arab tili grammatikasiga oid arab bo‘lmagan olimlar tomonidan ko‘plab asarlar yozilgan va arab tilshunosligi ilmi rivojiga hissa qo‘shilgan. Shunday allomalardan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy hisoblanadi. Olimning turli sohalarda yozgan asarlari juda mashhur bo‘lib, ilmiy merosining o‘rganilishi manbashunoslik va arab tilshunosligi ilmida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning arab tilshunosligiga oid qarashlari sohaning yetuk olimlari tomonidan e‘tirof etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Al-Hakim at-Termiziy, arab tilshunosligi, ilmiy tadqiqotlar, xorijiy nashrlar, maqolalar, qo‘lyozma nusxalar, filologik yondashuv, lingvistik asarlar.*

**Asosiy qism.**

Bugungi globallashuv zamonida ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o‘rganish, ularning noyob asarlarini o‘sib borayotgan yosh avlodga yetkazish, ularni turli g‘oyaviy xurujlardan himoya qilish maqsadida izchil tadqiqotlar olib borish har doimgidanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, movarounnahrlik buyuk allomalarning dunyo qo‘lyozma fondlari va kutubxonalarida saqlanayotgan noyob asarlarini tadqiq qilish, ularni ilmiy jamoatchilikka yetkazish ham ustuvor vazifaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 24- mayda «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2995 sonli qarori ilmiy tadqiqotchilar oldida ajdodlarimizning bebaho ma‘naviy merosini tadqiq etish va yosh avlodga yetkazishdek mas‘uliyatli vazifalar yukladi<sup>1</sup>. Prezidentimizning ajdodlarimiz ilmiy merosini o‘rganishga qaratayotgan keng ko‘lamli islohotlari natijasida 2017-yil 14-fevraldagi

<sup>1</sup> Азамов, Б. Б. Ҳақим Термизийнинг «Ал-амсол минал-китоб вас-сунна» асари муҳим адабий манба / Б. Б. Азамов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 15 (305). — С. 446-449.

«Imom Termiziy Xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2774 sonli qarorlari Hakim Termiziy hayoti va ijodiy faoliyatini keng o‘rganish masalalari asosini belgilab beruvchi olamshumul qadam bo‘ldi. Bu esa ilmiy tadqiqotchilar oldida buyuk ajdodimiz hisoblanmish Hakim Termiziyning ilmiy merosini yanada chuqur o‘rganishga chinakam targ‘ib bo‘lib xizmat qildi. Qolaversa, 2015-yilda Abu Iso Termiziy hamda Hakim Termiziy asarlari ro‘yxati keltirilgan Termizlik allomalar asarlari katalogi ishlab chiqildi va Prezidentimizning maxsus topshirig‘iga binoan Termiziyning ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda g‘arb tadqiqotchilari Hakim Termiziyning asarlarini tadqiq qilish, ularni restavratsiya va nashrga tayyorlash ishlarini olib borayotgan bo‘lsalar, sharq tadqiqotchilari Hakim Termiziy asarlari kodikologiyasini tuzish, olimning hayoti va ilmiy faoliyatini yoritish ustida ish olib bormoqdalar. Bu esa termizlik buyuk allomaning ilmiy merosi bilan yaqindan tanishishga, uning asarlarini yanada tadqiq etishga undamoqda. Z.Faxriddinovning «Tahsil nazoir al-Qur‘on asari —Qur‘on ilmlariga oid muhim manba» nomli tadqiqotida Hakim Termiziyning hayotiy va ijodiy faoliyatiga doir izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar quyidagicha keltirilib o‘tilgan. Unga ko‘ra allomaning ilmiy merosini g‘arb olimlaridan K.Brokklemen, V.Jukovskiy, I.Petrushevskiy, V.Bartold, Ye.Bertels, I.Goldsiyer, A.Masse, A.Mes, A.Knish, J.Trimingem kabilar Maraziy Osiyo tasavvufi allomalari va ularning ilmiy merosi doirasida, L.Massinon, N.Hir, B.Radtke, A.Shimmel, A.Arberri, P.Nviya esa, buyuk alloma, Markaziy Osiyo tasavvufiy olimlarining yetuk namoyondasi Hakim Termiziy hayoti va ilmiy faoliyati borasida o‘zlarining qarashlari va ma‘lumotlarini keltirib o‘tganlar<sup>2</sup>. Doktor Muhammad Ibrohim Juyushiy Hakim 2005-yilda Termiziyning lingvistikaga oid kitobi sanalmish «Al-furuq va man‘u-t-taroduf» (الفروق ومنع الترادف - «Farqlar va sinonimiyaning yo‘qligi») asarini nashrga tayyorladi. «Iymon» matbaasi tomonidan nashr etilgan kitob allomaning ilmiy merosi, asarlari, uning hayoti va ijodiga taalluqli ma‘lumotlar bilan boyitildi. Hakim Termiziyning fikr-g‘oyalari,

<sup>1</sup> Termizlik allomalar asarlari qo‘lyozmalari katalogi. – T.:, 2015.

<sup>2</sup> Бартольд В. Сочинения. М.: Восточная литература, 1963. Т. II.; Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой (Кашф аль-махджуб) Критический текст. Под. В. Жуковский. Ленинград: Государственная академическая типография, 1926.; Петрушевский И. Ислам в Иране. Лен.: Ленинградский ун-т, 1966., Бертельс Е. Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1965.; Голдциер И. Лекции об исламе / перевод с немецкого А.Н черновой. СПб: брокгауз-Еадрон, 1912.; Trimmingham J The sufy orders in islam. London: Oxford N.Y., 1973. Мец А. Мусульманский реннесанс / Перевод с немецкого Д.Е.Бертельса. М.: Наука, 1966; M Brockelmann C. Geschichte der arabischen Literatur. Supplementband I-III- Leiden, 1937., Масс А Ислам очерк истории. Перевод с французского Н.Б. Кобринов и Н.С. Луцкой. М.: Издательство Восточной литературы, 1963; Кныш А. Мусульманский мистицизм. М. Диля, 2004.; Massignon L. Essai Sur Les Origines Du Lexique Technique De La Mystique Musulmane. Paris: Geuthner, 1922, Heer N. Some biographical and bibliographical notes on al-Hakim at-Tirmidhi // The World of islam: studies in honour of Philip Hitti. -London: 1959-30 p.; Radtke B. Al-Hakim at-Tirmidi. Freiburg Klaus Schwarz Verlag, 1980; Arberry A. Sufism.-London George Allen and Unwin LTD, 1950.; Nwiya P. Al-Hakim at-Tirmidi et le la ilaha illallah. // Melanges de l’Universite Santh Joseph XL/V/9 1968; Шimmel А. Мир мусульманского мистицизма. М.: Энигма, Алатейя, 2000.

qarashlari va u qoldirgan merosga chinakam e'tibor 20-asrning birinchi yarmidan boshlandi. Xossatan, 1947-yilda Doktor Hasan Abdulqodir va Doktor Arberri olimning «Riyoziyat at-nafs» (رياضة النفس - «Nafs tarbiyasi») va «Adab an-nafs» (أدب النفس - «Nafs odobi») kitoblari ustida tadqiqotlar olib borishdi. Ular amalga oshirgan tahqiqatlarida tahlillar, sharhlar va Termiziyning so'fiylik ta'limotiga doir qarashlariga nisbatan tanqidiy fikrlarni qamrab oldi. Ushbu nashrda tadqiqotchilarga ma'lum bo'lgan Termiziyning mavjud va yo'qolgan asarlari ro'yxati keltirildi. 1946-yilda Doktor Aliy Hasan Abdulqodir tomonidan Termiziy qalamiga mansub «Haqiqat al-Adamiyya» (حقيقة الأدمية - «Bashariyat haqiqati») nomli kitobi nashrga tayyorlanib, Iskandariya universiteti adabiyot fakulteti jurnali 3-sonida chop etildi. Ushbu amalga oshirilgan izlanishlar Termiziyning ilmiy faoliyatiga qiziquvchilar uchun yangi ufq eshiklarini ochib berdi va Termiziyning ilmiy maqomi ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortdi. Shuningdek, bu ishlar olimning hayotiy va ijodiy faoliyatini tadqiq qiluvchilar uchun yaxshigina yordam bo'ldi. Bir muddatdan so'ng, Doktor Usmon Ismoil Yahyo 1958-yilda «Melange» jurnalida Termiziyning qarashlari va ilmiy asarlari to'g'risida o'zining tadqiqotini nashr qildi va Termiziyning asarlari va uslubi haqida batafsil so'z yuritdi. U amalga oshirgan kichik ilmiy izlanish fransuz tilida chop etilib, olim risola va kitoblarining nomi va nima haqida ekanligi, mavjud nashr qilingan asarlari yoki qo'lyozma nusxalarining soni, hamda qo'lyozmalarining qayerda saqlanayotganligi va raqamlari haqida qimmatli ma'lumotlar taqdim etdi. Hakim Termiziy qalamiga mansub bo'lmagan kitoblarni unga nisbat berib tadqiqotda juz'iy xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsada, uning izlanishi muhim tadqiqotlardan hisoblanadi. Bir yil o'tib, 1958-yilda amerikalik sharqshunos olim Nikolas Heer Termiziyning «Bayan al-farqi bayna as-sadr val-qalb val-fuad, val-lubb» (بيان الفرق بين الصدر والقلب والفؤاد واللب) kitobini nashr etdi. Unda sharq va g'arbning turli kutubxonalarida saqlanib kelinayotgan asarlarini joylari va raqamlarini qo'shimcha qildi. Doktor Usmon Yahyo «Mashriq» jurnalida «Xatm al-avliyo» (ختم الأولياء - «Avliyolar muhri») asarining ayrim boblarini nashr qilganidan so'ng o'zidan oldingi tadqiqotchilar muhokama qilgan masalalarni e'tiborga olgan holda Hakim Termiziyning ushbu kitobiga qo'shimcha qilib o'zining tadqiqotini chop ettirdi. So'ngra kitobning muqaddima qismiga «Bad'u sha'ni Abu Abdulloh» (بدء شأن أبي عبد الله) risolasini ilova qildi<sup>1</sup>. Ushbu asar Termiziy hayoti va ijodiga doir o'zi ta'rif qilgan eng qadimiy avtobiografik qo'lyozmalardan hisoblanadi va manba Hakim Termiziyning yashab o'tgan ma'naviy, fikriy hayot yo'lini kashf etadi. Kitobni sharhlash asnosida Doktor U.Yahyo «Al-Qistos al-mustaqim fi ma sa'la anhu at-Termiziyyi al-Hakim» (القسطاس المستقيم فيما سأل عنه الترمذي الحكيم) kitobini

<sup>1</sup> Al-Hakim at-Termiziy. Al-furuq va man'-u-taroduf. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. — "Tahsil nazoir al-Qur'on" asari — Qohira: Iymon nashriyoti, 2005.

ham ilova qilgan. «Al-Qistos al-mustaqim fiy ma sa'la anhu at-Termiziyyi al-Hakim» ibn Arabiy tomonidan Hakim Termiziy so'ragan 155 savoliga javob o'laroq yozilgan risoladir. Tan olish kerakki, Doktor U.Yahyo Termiziy asarlari va valoyat (avliyolik) haqidagi fikrlarini kashf qilishda xizmat ko'rsatdi. Bu esa, Termiziy asarlarini o'rganuvchi tadqiqotchilarning maqtoviga sazovor bo'ldi.

Bundan tashqari 1965-yilda Doktor H.Zaydon «Sharh us-solati va maqosidiha» (شرح الصلاة ومقاصدها – «Namoz sharhi va uning maqsadlari»), 1970-yilda «Tahsil nazoir al-Qur'on» (تحصيل نظائر القرآن – «Qur'onning purma'no so'zlari yig'indisi») asarini nashrga tayyorladi. 1974-yilda esa «Manazil ul-ibodi min al-ibodati» (منازل العباد من العبادة – «Ibodatda bandalarning maqomlari») yoki «Manazil ul-qosidiyna ila Allohi» (منازل القاصدين إلى الله) kitobi, 1977-yilda «Ma'rifat al-asrar» (معرفة الأسرار) asari, 1978-yilda «Al-Kalom ala ma'na la ilaaha illa Allah» (الكلام على معنى لا إله إلا الله) yoki «Shifo ul-ilal» (شفاء العلال) asari, 1980-yilda «Al-masail al-maknuna» (المسائل المكنونة) shu yilning o'zida Bayrutda islom dinida qaytarilgan amallar hadislarini jamlangan «Al-manhiyyot» (الأكياس من المفترين) asarlari nashrga tayyorlanib chop etildi. «Al-akyos al-muftariyn» (منبر الإسلام) jurnalida bir necha risolalarga bo'linib nashrdan chiqdi. Doktor A.Bijoviy ham «Al-amsol min al-Qur'on va as-sunna» (الأمثال من القرآن والسنة) kitobi ustida nashrga tayyorlash ishlarini olib bordi. Bundan so'ng ingliz va arab tillarida bir necha tadqiqotlar amalga oshirildi. Arab tilida A.Husayniy 1959-yilda Termiziyning ilmiy faoliyatini va Termiziy hayotini batafsil o'rgangan olim Abdulfattoh Baraka 1969-yilda Hakim Termiziyning valoyatga oid qarashlari, asarlari va hayotiy faoliyatiga to'g'risida tadqiqotlar olib bordi. Ushbu tadqiqot ustidagi ishlar 1966-yilda boshlanib, London universitetiga 1969-yilda taqdim etiladi va 1970-yilda muhokama qilinadi. So'ngra 1980-yilda chop etiladi. Bunga qo'shimcha ravishda A.Barakaning 1970-1974-yillarda ingliz tilida Londondagi islom markazi jurnali hisoblanmish «The Islamic Quarterly»da bir qancha maqolalari chop etilgan. Ushbu maqolalarning nomlari quyidagilar bo'lib, M.Juyushiy tomonidan nashrga tayyorlangan «Al-furuq va man'u-t-taroduf» asarida keltirilib o'tilgan.

1. Al-Hakim Al-Tirmidhi: hisworks and thoughts 1970 no. 4.
2. Al-Tirmidhi's theory of saints and saint hood 1971 number 1.
3. Al-Tirmidhi's theory of gnosis 1971 number 4.
4. Al-Tirmidhi's conception of the areas of interiority 1972 number 3., 4.
5. Al-Tirmidhi's conception of the struggle between qalb and nafs soul 1974 number 3,4<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Al-Hakim at-Termiziy. Al-furuq va man'u-t-taroduf. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. — "Tahsil nazoir al-Qur'on" asari — Qohira: Iymon nashriyoti, 2005.

Shu bilan bir qatorda Hakim Termiziyning ilmiy faoliyatiga oid dunyoning nufuzli ta'lim dargohlari doktorantura bosqichlarida jumladan, Misrning Al-Azhar universiteti «Usul ad-din fakulteti, Qohira universitetining «Dor ul-ulum» fakulteti va shu universitetning «Adabiyot» fakultetlarida doktorlik dissertatsiyalari amalga oshirildi.

Shuningdek, arab olimlaridan X.Zahriy K.Avayza, A.Baraka, R.Huzayyan, A.Soyih, U.Yahyo kabi olimlarning tadqiqotlarida Hakim Termiziy hayoti va yozib qoldirgan asarlari, xususan qur'onshunoslik va arab tilshunosligiga doir «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan<sup>1</sup>. Misrlik tadqiqotchi olim Husniy Zaydon buyuk ajdodimiz Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarini nashrga tayyorlab, 1969 yilda chop ettirgan. Qur'on ilmlarining «vujuh va nazoir» (الوجوه والنظائر) tarmog'ini o'rganishda zamonaviy arab tadqiqotchilaridan S.Avo va N.Munajjid fundamental tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida Hakim Termiziyning vujuh va nazoir borasidagi yondoshuvlariga alohida to'xtab o'tilgan<sup>2</sup>. Shu asnoda termiziyshunos olimlar U. Uvatov va I.Usmonov muallifligida «Termizlik ikki alloma» kitobi 2017-yilda nashrdan chiqdi. Kitobda: «Ushbu risola termizlik ikki buyuk alloma Abu Iso Muhammad va al-Hakim at-Termiziylarning hayoti, ijodiy faoliyati, islom ilmlari rivojiga qo'shgan hissasi, ilmiy-ma'naviy merosi tadqiqiga bag'ishlanadi. Allomalarning o'z davridagi diniy masalalar, inson ruhiyati, axloq-odob, hikmat borasida bergan qimmatli fikrlari bugungi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, hozirda turli da'volarni ilgari surayotgan yot kuchlarning kirdikorlarini fosh qilishda ham ushbu ikki allomaning asarlari beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Zero, sof islom ta'limoti aks etgan ushbu asarlarda zo'ravonlik, xunrezlik, buzuqlik kabi illatlar qoralanib, ma'naviy barkamollik g'oyalari ilgari suriladi. O'quvchida termizlik allomalarning ijodi haqida to'liq tasavvur paydo bo'lishi uchun risolada ularning asarlaridan tarjimalar ham

<sup>1</sup> Z.Faxriddinov. «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari — Qur'on ilmlariga oid muhim manba, — Toshkent: O'zXIA, 2023.

<sup>2</sup> Avayza K. Al-Hakim at-Termiziy al-faqih an-noqid. - Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1993.; Baraka A. Al-Hakim at-Termiziy va nazariyatuhu fil-valoya. Qohira: Majmaa al-buhus al-islomiya, 1971.; Soyih A. Al-Hakim at-Termiziy // Xatm al-avliyo lil-Imom al-hofiz al-Hakim at-Termiziy, Nashrga tayyorlovchi A.Soyih. -Qohira: Maktaba as-saqofa ad-diyaniya, 2008.; Yahyo U. Muqaddima omma // Kitob xatm al-avliyo. Bayrut: al-Maktaba al-kosulikiya, 1965.; Juyushiy, M.I. al-Hakim at-Termiziydirosatun li-osorihi va afkorihi. Qohira: Dor an-nahza al-arabiya, 1980.; Huzayyan R. Al-Hakim at-Termiziy va manhajuhu al-hadisiy fi Navodir al-usul. - Qohira: Dor al- ofoq, 1998.; Zahriy X. Hakim Xuroson va anis az-zamon. - Rabot: ar-Riyoza al-muhammadiya lil-ulamo, 2013; Zaydon H. Muqaddima // Tahsil nazoir al-Qur'on lil-Hakim at-Termiziy. Nashrga tayyorlovchi H.Zaydon. Qohira: Matbaatu-s-saoda, 1969-70.; Al-Avo S.M. al-Vujuh van-nazoir fil-Qur'on al-karim. Bayrut: Dor ash-shuruq, 1998; Munajjid N.M. al-Ishtirok al-lafziy fil Qur'on al-karim: bayna an-nazariya vat-tatbiq. Damashq: Dor al-fikr, 1999.; "Cift S. Hakim Tirmizi ve tasavvuf anlayishi. Istanbul: Insan yayinlari, 2008.; Kaya S. Hakim etTirmizi'de vucuh ve nezair. Istanbul: Ragbet, 2016; Uyar M. Hakim Et-Tirmizi'nin 'Risaletu keyfiyyeti's-suluk ila rabbi'l-alemin' adli eserinde bireysel bir caba olarak uzlet, halvet ve keşf sureci. Samsun: Ondokuz Mayıs Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, Aralık/December 2018.-S. 209-242.; Abdurrezzak A. Hakim Tirmizi'nin psikoloji anlayışında öğrenme ve algılama. Bursa: T.C.Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Cilt: 11, Sayı:2, 2002.-S. 237-250; İşitan

keltirilgan<sup>1</sup>”- deyiladi. Ushbu mo‘jaz risolada ham Hakim Termiziyning ilmiy faoliyatiga doir qimmatli ma’lumotlar taqdim etiladi. Bundan tashqari tadqiqotchi Z. Faxriddinovning «Tahsil nazoir al-Qur’on asari-Qur’on ilmlariga oid muhim manba» nomli tadqiqotida Hakim Termiziyning islom manbalari sharhiga oid asarlari tasnifi batafsil keltirilgan va unda alloma hayoti qay darajada o‘rganilganligi ham aytib o‘tilgan. Misrlik olim shayx Abdulfattoh Abdulloh Baraka ham Termiziy asarlari klassifikatsiyasi bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Hakim Termiziy ta’liflari orasida eng avvalo, Muhammad (s.a.v) hadislariga bag‘ishlangan «Navodir al-usul fi ma’rifati axbor ar-Rasul» (الرسول نواذر الأصول في معرفة أخبار) - «Rasululloh xabarlarini bilishda nodir usullar») kitobini alohida e’tirof etib o‘tish lozim. Ushbu asarning ikki qo‘lyozma nusxasi Toshkentda mavjud bo‘lib, ulardan biri O‘zbekiston musulmonlar idorasining kutubxonasida, ikkinchisi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi<sup>2</sup>.

Ko‘hna yurtimizning Termiz shahrida tavallud topib, shu yerda yetishib chiqqan allomalarga Termiziy nomi nisbat beriladi. O‘rta asr klassik asarlariga xos bo‘lganidek, odatda biografik asarlarda olimlarning qaysi sanada tug‘ilgani haqida ma’lumotlar kamroq uchraydi va asosan ularning vafot etgan sanalari keltirib o‘tiladi. Xuddi shuningdek, Hakim Termiziyning tavallud topgan sanasi aniq emas. Uning hayotini batafsil o‘rgangan olimlar o‘rtasida bu borada yakdil fikr yo‘q. Termiziyning necha yil umr ko‘rganligi haqidagi turli ma’lumotlarga tayanib, milodiy 820-yilda tug‘ilganligini taxmin qilish mumkin. Lekin, vafot etgan sanasi 932-yil ekanligi bir qancha manbalarda keltirib o‘tilgan. Termiziyning ilmiy faoliyatiga doir ma’lumotlar ko‘pincha o‘zining qalamiga mansub «Bad’u sha’ni Abu Abdulloh» nomli avtobiografik risolasidan olinadi. Shuningdek, bu ulug‘ ajdodimizning tarjimai holiga oid ma’lumotlar o‘rta asr arab mualliflaridan Tojuddin as-Subkiy, al-Xatib al-Bag‘dodiy, Ibn Hajar al-Asqaloni, as-Sullamiy asarlarida va boshqa manbalarda keltiriladi<sup>3</sup>. Termiziyga Hakim taxallusi berilishi sababi u ko‘plab ilmlarning bilimdoni bo‘lgani bilan izohlanadi. Arab tilida “hakim” so‘zi donishmand, bilimdon degan ma’nolarni bildiradi. Odatda Termiziyning hayoti haqida olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e’tibor uning an’anaviy so‘fiylardan ekanligiga, tasavvufda o‘ziga xos tariqatga ega bo‘lganiga qaratiladi. Darhaqiqat, olim Markaziy Osiyodagi klassik tasavvuf namoyondalaridan hisoblanadi. Shuningdek, Termiziy shar’iy ilmlarning chinakam bilimdoni bo‘lganini aytib o‘tish o‘rinlidir. Allomaning qur’onshunoslik, tafsir, hadisshunoslik, fiqh, axloq, tasavvuf, mazhablar tarixi, arab tilshunosligi va

<sup>1</sup> U.Uvatov I. Usmonov. Termizlik ikki alloma. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017.

<sup>2</sup> Ad.: Uvatov U., Al-Hakim at-Termiziy (hayoti va merosi), T., 2001; Termiz tazkirasi [tuzuvchi Mirzo Kenjabek], T., 2001.

<sup>3</sup> <http://forum.oyina.uz/kiril/generation/123>

lugʻatshunosligiga doir yozgan asarlari bisyor boʻlib, umumiy hisobda 400 ga yaqin kitob taʼlif etgani haqida maʼlumotlar bor. Ammo, baʼzilar Hakim Termiziy 81 ga yaqin adadda asarlar yozganini taʼkidlaydilar va ularning taxminan 60 ga yaqini bizgacha yetib kelgan va dunyoning nufuzli qoʻlyozma fondlarida saqlanmoqda.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, Hakim Termiziy sharʼiy ilmlar bilimdoni hisoblanib, hanafiy mazhabi muhitida voyaga yetgan. Uning shariat maqsadlarini bayon etuvchi kitoblari mavjud boʻlib, dastlabgilaridan «Sharh as-solat va maqosidiha» kitobi hisoblanadi<sup>1</sup>. Shu oʻrinda allomaning arab tilshunosligiga oid qoldirgan ilmiy merosini eslab oʻtish maqsadga muvofiqdir. Hakim Termiziy asar taʼlif qilish uslubining oʻziga xosligi shundan iboratki, uning asarlari xoh sharʼiy ilmlarga oid boʻlsin, xoh tilshunoslikka doir boʻlsin diniy-axloqiy va tasavvufiy meʼyorlar asosida yozilgani bilan ajralib turadi. Termiziyning sharofati bilan islomshunoslik imlariga “tasavvufiy fiqh” atamasi kirib keldi<sup>2</sup>. Arab tilshunosligiga oid kitoblari «Tahsil nazoir al-Quʼron», «Al-furuq va manʼu-t-taroduf», «Bayon al-farqi bayna as-sadr val-qalb val-fuad, val-lubb» kabi asarlari arab tilidagi polisemiya, sinonimiya, omonimiya hodisalari talqiniga bagʻishlanadi. Uning lingvistik asarlaridagi soʻzlar tahlillari ham Qurʼoni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan sharhlanadi. Hakim Termiziy arab tilshunosligida soʻz maʼnolari boʻyicha oʻziga xos qarashlarga ega boʻlib, boshqa tilshunoslar bilan farqli jihatlarini bayon etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, «Tahsil nazoir al-Quʼron» asari ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, Hakim Termiziy Qurʼonni tushunish va tushuntirish zarurati hamda oyatlardagi soʻzlarning toʻgʻri talqin qilinishi muammolarini hal etish uchun Qurʼondagi 81 ta atamani (71 ta ot, 8 ta feʼl, 2 ta sifat) “nazoir” (shakldosh), deb baholab, ularning umumiy hisobda 258 ta “vajhi” (maʼnosi)ni sanab oʻtganini ochib berilgan<sup>3</sup>. Bundan tashqari H.Aminov tomonidan ushbu asar ilk marta oʻzbek tiliga akademik tarjima qilindi. Qolaversa, B.Azamovning Hakim Termiziy «Al-amsol minal-kitob vas-sunna asari muhim adabiy manba» nomli filologik yondashuv asosida amalga oshirgan tadqiqoti ham Termiziy asarlariga doir izlanishlar koʻlaminin kengayishida muhim ahamiyat kasb etdi. Maʼlumki, klassik sharq manbalari adabiyotning metafora, metonimiya, sinekoxa, tashbeh, istiora, talmeh, majoz, sajʼ kabi ifodaviy uslublariga boy boʻlibgina qolmay, yuksak balogʻiy usulda bayon qilinadi. Tadqiqotda Termiziyning «Al-amsol minal-kitobi vas-sunna» asari xuddi shu talqin oʻlaroq tahlil qilingan.

Shu bilan bir qatorda, Termiziy asarlari Misr Arab Respublikasi Iskandariya shahrining Baladiya kutubxonasi qoʻlyozma fondi, Qohiradagi Dor al-kutub al-

<sup>1</sup> <https://termiziy.uz/uz/news/1056>

<sup>2</sup> <https://termiziy.uz/uz/news/1056>

<sup>3</sup> Z.Faxriddinov. “Tahsil nazoir al-Qurʼon” asari — Qurʼon ilmlariga oid muhim manba, — Toshkent: OʻzXIA, 2023.

Misriyya kutubxonasi fondi, Parij milliy kutubxonasi, Istanbul shahridagi Oshir Afandi nomli kutubxonasi, Hindistonning Kalkutta shahridagi Al-jam'iyya al-Asiyaviyya nomli kutubxonasi, Damashqning Az-Zohiriya kutubxonasi tasavvuf 104 raqamida majmuasi, Qohiradagi "Dor ul-kutub al-ilmiyya" manbalar xazinasi, Qohira shahridagi Arabiy qo'lyozmalar instituti, Angliyadagi Manchester shahri, O'zbekiston musulmonlari idorasining kutubxonasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kabi dunyoning nufuzli ilmiy dargohlari, manbalar xazinalari va kutubxonalarida saqlab kelinmoqda.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, yuqorida amalga oshirilgan ko'plab izlanishlarga qaramasdan Termiziyning asarlari dunyoning turli kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida o'rganilmay qolib ketmoqda. Buyuk alloma, o'z zamonasining bilimdoni va ulug' ajdodimiz Hakim Termiziyning noyob va beqiyos ilmiy merosi xalqimizning tom ma'nodagi bebaho xazinasi hisoblanadi. Ushbu tarixiy qo'lyozma manbalarni tahqiq qilish, ularni nashrga tayyorlash, tarjima qilish va keng ilmiy jamoatchilikka yetkazish termiziyshunos tadqiqotchilar oldida katta mas'uliyat yuklaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8-jild;
2. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017, B. 470;
3. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017;
4. U.Uvatov. O, Jo'rayev. Xakim at-Termiziy. – Toshkent: "Tafakkur nashriyoti", 2019;
5. Ubaydulla Uvatov. Ikki buyuk donishmand – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2005;
6. Z.Choriyev, T.Annayev, B Murtozoyev, J.Annayev. Al-Hakim at-Termiziy. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2008.
7. Uvatov.U, Usmonov.I Termizlik ikki alloma. – Toshkent: "Toshkent Islom universiteti.
8. Z.Faxriddinov. "Tahsil nazoir al-Qur'on" asari — Qur'on ilmlariga oid muhim manba, — Toshkent: O'zXIA, 2023.
9. Azamov, B. B. Hakim Termiziyning «Al-amsol minal-kitob vas-sunna» asari muhim adabiy manba / B. B. Azamov. — Tekst : neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. — 2020. — № 15 (305). — S. 446-449.



10. Uvatov U., Al-Hakim at-Termiziy (hayoti va merosi), T., 2001; Termiz tazkirasi.
11. Al-Hakim at-Termiziy. Al-furuq va man'u-t-taroduf muqaddimasi. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. — “Tahsil nazoir al-Qur'on” asari — Qohira: Iymon nashriyoti.

**Foydalanilgan axborot saytlari:**

1. <https://termiziy.uz/uz/news/1056>
2. <http://forum.oyina.uz/kiril/generation/123>
3. <https://www.bukhari.uz/?p=11893>
4. <https://alhidoya.uz/maqolalar/termizlik-donishmand/>
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/termiziy-uz/>
6. <https://moluch.ru/archive/305/68656/>
7. <https://kukaldosh.uz/07/02/2018/241>
8. <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/29847.html>
9. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/1869-al-akim-at-termizij-buyuk-sijmo>